



HUSNIXATGA O'RGATISHNING METODIK SHARTLAR

Shahrisabz davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Xolbozorova Nasiba

Shahrisabz davlat pedagogika instituti

Pedagogika fakulteting boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 2-bosqich talabasi

Xolmatova Gulsanam Absattor Qizi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarini husnixatga o'rgatish jarayonining metodik shartlari, samarali usullari vadars jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan pedagogik yondashuvlar tahlil qilinadi. Husnixatni o'rgatishda o'qituvchining roli, texnik vositalardan foydalanish, harflarni to'g'ri yozish ko'nikmasini shakllantirishdaining innovatsion usullar tavsiya etiladi.

Kalit so'zlar: husnixat, metodika, boshlang'ich ta'lim, yozuv malakasi, pedagogik yondashuv, dars jarayoni

Penmanship lessons enhance not only technical skills but also attention, memory, fine motor skills, and coordination. This article discusses the key conditions for effective handwriting instruction, as well as methodological approaches and pedagogical recommendations applicable in the educational process.

Key words: calligraphy, teaching, main conditions, educational process, primary education, writing skills, handwriting, teaching methods, aesthetic education

Kirish:

Boshlang'ich sinflarda husnixat o'qitish – bu o'quvchilarning yozma nutqini shakllantirishda muhim bosqich hisoblanadi. Harflarni to'g'ri, chiroyli va o'quvchan yozish nafaqat estetik, balki mantiqiy, psixomotorik va psixologik ko'nikmalarni rivojlantiradi. Shuning uchun ham husnixatga o'rgatish jarayoni puxta metodik asosga ega bo'lishi zarur. Husnixat – bu nafaqat chiroyli yozuv san'ati, balki o'quvchining tafakkuri, estetikdidi vaishchanlik sifatlarini



shakllantiruvchi muhim ta'limiy jarayondir. Yozuvga o'rgatish, ayniqsa boshlang'ich sinf bosqichida, bola shaxsining har tomonlama rivojlanishiga xizmat qiladi. Shu sababli husnixat darslari faqat texnik ko'nikmalarni emas, balki diqqat, xotira, mayda motorika, muvofiqlashtirish kabi ko'plab psixologik jarayonlarni rivojlantiradi. Ushbu maqolada husnixatga o'rgatishning asosiy shartlari, ta'lim jarayonida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali metodik yondashuvlar va pedagogik tavsiyalar muhokama qilinadi. Husnixatga o'rgatishning metodik shartlari: Didaktik tamoyillarga asoslanish va husnixatga o'rgatishda quyidagi didaktik tamoyillar muhim o'rin tutadi: Sistemalilik va izchillik: Harflarni yozishga o'rgatishdan avval ularning shakli, tuzilishi, tuzilma elementlari haqida tushuncha berilishi kerak. Ko'rgazmalilik: Ko'rgazmali qurollar, yozuv namunalari, videodarslardan foydalanish orqali o'quvchining vizual xotirasi mustahkamlanadi. Qayta takrorlash: Har bir harfni yozish jarayoni ko'p marotaba takrorlansa, yozuv avtomatlashadi. Psixologik-pedagogik yondashuv: Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun husnixat mashqlari faqatgina mexanik harakat emas, balki ularning psixologik rivojlanishiga ham ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun quyidagilarga e'tibor qaratilishi lozim: O'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hisobga olinishi; Harflarni yozishdagi qiyinchiliklarni aniqlash va individual yondashuvni qo'llash va Ijobiy motivatsiyani shakllantirish: rag'bat, maqto'v, o'zaro baholash usullaridan foydalanish. Texnik shartlar: Husnixatga o'rgatishda qulay sharoitlar yaratilishi lozim: Yozish uchun qulay stollar va stellar va Yoritilgan xonato'g'ri tutilganruchka va daftarlar; Standart chiziqlarga ega daftarlar. Innovatsion metodlardan foydalanish Interaktiv metodlar: "Klaster", "Insert", "Aqliy hujum" kabi metodlar orqali o'quvchining faolligi oshiriladi. Raqamli texnologiyalar: Multimedia vositalar, elektrondarsliklar, interaktiv taqdimotlar yordamida yozuv texnikasi ko'rgazmali tarzda tushuntiriladi. Trening va mini-mashg'ulotlar: Har kuni qisqa muddatli husnixat mashqlari orqali ko'nikmalar mustahkamlanadi. Xulosa: Husnixatga o'rgatish o'qituvchidan yuqori malaka, sabr-toqat va puxta



metodik tayyorgarlikni talab qiladi. To'g'ri tashkil etilgan dars jarayoni orqali o'quvchilarda nafaqat chiroyli yozuv, balki intizom, estetikdid va mantiqiy fikrlash ko'nikmalari ham rivojlanadi. Shu boisdan, husnixatga o'rgatish metodikasini takomillashtirish, zamonaviy yondashuvlardan foydalanish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Xolmatova M. "Boshlang'ich sinflarda husnixat o'rgatish metodikasi", Toshkent, 2020.
2. Karimov A. "Pedagogik texnologiyalar va innovatsiyalar", Toshkent, 2019.
3. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi o'quv dasturlari va metodik qo'llanmalari.